



BADIY ASAR MATNLARIDA KONTEKSTUAL ANTONIMLARNING QO'LLANILISHI

Jasmina Inatova,

Xalqaro innovatsion universitet talabasi

Ilmiy rahbar: Mahliyo Jo‘rayeva, XIU o‘qituvchisi

Annotation. Kontekstual antonimlar badiiy asarlarda asosiy vositalardan biri bo‘lib, muallifning uslubi va asarning estetik jihatlarini boyitishga xizmat qiladi. Bu usul orqali adiblar o‘quvchini chuqur o‘yga toldirish, obrazlarni yorqinroq tasvirlash va matnga emotsiyal kuch bag‘ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: zid ma’no, mazmunan qarama-qarshilik, ekspressivlik, tazod.

Abstract. Contextual antonyms are one of the main tools in artistic works and serve to enrich the author's style and aesthetic aspects of the work. Through this method, writers have the opportunity to fill the reader with deep thoughts, depict images more vividly, and give emotional power to the text.

Key words: opposite meaning, contrast in content, expressiveness, contrast.

Kontekstual antonimlar – bu lug‘aviy jihatdan antonim bo‘lmagan, lekin muayyan kontekstda bir-biriga qarama-qarshi ma’no kasb etuvchi so‘zlar yoki iboralar. Badiiy matnlarda bunday antonimlar nutqni ta’sirchan qilish, muallif uslubini boyitish va estetik ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi.

Kontekstual antonimlarning asosiy vazifalari:

Emotsional ta’sirni kuchaytirish. Adiblar o‘z asarlarida qarama-qarshi tushunchalarni o‘ziga xos tarzda uyg‘unlashtirib, o‘quvchiga ta’sir o’tkazadi. Masalan: “U kulib turar, yuragi esa qon yig‘lar edi”. Bu yerda “kulmoq” va “qon yig‘lamoq” so‘zlari lug‘aviy jihatdan antonim emas, lekin kontekstda qarama-qarshi ma’no kasb etgan.

Personaj xarakterini chuqurroq ochib berish. Qahramonning ichki kechinmalari va tafakkuri murakkabligini ko‘rsatish uchun ishlataladi. Masalan: “U tinch edi, ammo yuragi ichida to‘fonlar g‘azab bilan o‘ynardi”.



Ironiya va kinoyani ifodalash. Badiiy matnda kinoya va ironiyani yanada aniqroq ifodalash uchun kontekstual antonimlardan foydalaniladi. Masalan: “Uning do’stlari unga eng katta dushmanlaridek qaradi”.

Zidlik asosidagi estetik go’zallik. Adabiy asarlarda yorqin obraz yaratishda kontrast usuli qo’llanadi. Masalan: “Oq ko‘ngilli odamlar ham ba’zan eng qora niyatlarni yuragida saqlar ekan”.

Badiiy asar matnlari tarkibida antonim (zid ma’noli) so‘zlarning mavjudligi va o‘rinli qo’llanilishi yozma badiiy nutqning ifodaliliginini, ta’sirchanligini, ekspressivligini ta’minlashning qulay usullaridan biri sanaladi. Bizga ma’lumki, Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan ham tildagi bu ifoda imkoniyatidan ijodkorlar unumli foydalanib kelishgan. Shoirlar o‘z ijod namunalarini (epik yoki lirik) ta’sir kuchini oshirish, o‘quvchiga o‘qishli bo‘lishi, o‘z ichki hissiyotini kitobxonga to‘la holatda yetkazish maqsadida “tazod” (muttazod, ittizod, takofu...) badiiy san’atidan barakali foydalanganlar. G‘arb adabiyotida esa u “antiteza” deb yuritiladi. Badiiy asar matnlarining lingvopoetik tahliliga yo‘naltirilgan ilmiy ishlarda esa u qarshilantirish, zidlantirish atamalari bilan ifodalananadi.

Badiiy adabiyotda belgilarni (oq-qora), holatni (eridi-muzladi) va hattoki, obrazlarni (To‘g‘rivoy-Egrivoy) zidlantirish imkoniyati bor ekan. Inson ongida qarama-qarshi so‘zlar shu darajada o‘rinalashganki, birini aytganimizda ikkinchi qismi beixtiyon xotiramizga va u orqali tilimizga voqelanadi. Shu qoidaga ko‘ra biri aytilganda ikkinchisi xotiraga keluvchi aka-uka, ota-on, bir-ming, oq-oq emas kabilar ham inson tasovvurida ma’lum qarama-qarshi ma’noni o‘zida saqlagandek tuyuladi. Aslida esa ular antonim emas, shunchaki uyadosh yoki inkor so‘zlar ekanligiga e’tiborli bo‘lish lozim.

Badiiy uslubda mahoratli yozuvchilar tomonidan qahramonlar ruhiyatini bo‘rttirish maqsadida, nozik usulda, matndan chiqarib olinganda qarama-qarshilik holatini yuzaga keltirmaydigan so‘zlarni mahorat bilan qo’llaydilar. Natijada **kontekstual antonimlik** hodisasi yuzaga keladi. “Zelixon Elchindan qasos haqidagi gaplarni birinchi marta eshitganda sergaklandi. U **mushtdek** yurakni **qoyadek** dard

bosib turibdi, deb tursa, bu vujudda vulqon kuch to‘playotgan ekan...” (T.Malik “Shaytanat”). Aslini olganda musht deganda kichik hajmni ifodalash bosh maqsad bo‘lsa, qoya deyilganda esa kattagina hajm nazarda tutilmoxda. Muallif “kichik yurakni katta dard bosib turibdi” tarzidagi holatda ham o‘z maqsadiga qaysidur ma’noda yetishgan bo‘lar edi, ammo o‘quvchida asar qahramoni Elchinning ruhiy va ayni vaqtdagi jismoniy holatini yetqazish darajasi bu darajada kuchli bo‘limgan bo‘lar edi. Yoki bo‘lmasa, “Madina **ezilib** turgandi, yangilikdan **ochilib** ketdi” gapida ham xuddi shunday holat. Ya’ni ezilish va ochilish gap matnidan chiqarib olinganda mazmunan qarama-qarshilik holati kuzatilmaydi. Gap tarkibida qo‘llanganda esa o‘quvchi ongi to‘la ikki turli ruhiy holatni osonlik bilan farqlay oladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, kontekstual antonimlik hodisasi badiiy asar matnining ta’sir kuchini oshirar, ifoda imkoniyatini kengaytirar va yozuvchining so‘z qo‘llash mahoratini ham ko‘rsatar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – TOSHKENT: ‘O‘zbek milliy ensiklopediyasi’ davlat ilmiy nashriyoti.
2. Komilova G. ‘Antonim so‘zlar vositasida qadriyat va bahoning ifodalanishi’ maqolasi.
3. Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax, 2006.